Ilmiy ishlanmalar amaliyotga joriy qilinmoqda

Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlari tomonidan yaratilgan g’o’zaning yangi istiqbolli “Xurma” va “Niyat” navlari O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3855-sonli qaroriga asosan tijoratlashtirish ro’yxatiga kiritilgan.

Ushbu navlarni keyingi yillarda katta maydonlarga ekish hamda urug’larini ko’paytirish maqsadida Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Xorazm ilmiy-tajriba stantsiyasi dalasida “Xurma” navidan 300 ta oila 0,30 ga maydonga 13 kg, urug’ ko’paytirish uchun 98 ta oila 0,80 ga maydonga 62 kg urug’lik chigit “Xurma” navi bo’yicha jami 1,10 ga maydonga ekilgan. “Niyat” navidan 300 ta oila 0,30 ga maydonga 13 kg, urug’ ko’paytirish uchun 95 ta oila 0,80 ga maydonga 62 kg urug’lik chigit “Niyat” navi bo’yicha jami 1,10 ga maydonga ekilgan.

Bugungi kunda har ikkala navlarning urug’lik chigitlaridan nihollar to’liq unib chiqdi.